

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.FIL.01.10 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

TYAN NATALYA VIKTOROVNA

GERMAN-SKIF LEKSIK IZOGLOSSLARI

**10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik
va tarjimashunoslik**

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2023

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
филологическим наукам**

Contents of dissertation abstract of philosophy (PhD) on philological sciences

Tyan Natalya Viktorovna

German-skif izoglosslari 3

Тян Наталья Викторовна

Германо-скифские лексические изоглоссы 25

Tyan Natalya Viktorovna

Germano-Scythian lexical isoglosses..... 51

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works 55

**O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.FIL.01.10 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

TYAN NATALYA VIKTOROVNA

GERMAN-SKIF LEKSIK IZOGLOSSLARI

**10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik
va tarjimashunoslik**

**Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida №B2021.4.PhD/Fil82 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya O'zbekiston Milliy universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) ilmiy kengash veb-sahifasi (www.nuu.uz) hamda «ZiyoNet» Axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Imyaminova Shuxratxon Salijanovna
filologiya fanlari nomzodi, professor

Rasmiy opponenlar:

Kulmamatov Dusmamat Sattarovich
filologiya fanlari doktori, professor

Sodiqov Zohidjon Yakubjanovich
filologiya fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi DSc.03/30.12.2019.FIL.12.10 raqamli Ilmiy kengashning 2023-yil «___» _____ soat ___ dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100174, Toshkent shahri, Forobiy ko'chasi, 400-uy. Tel.: (99871) 246-08-62; faks: (99871) 246-65-24; e-mail: nauka@nuu.uz. O'zbekiston Milliy universiteti, Xorijiy filologiya fakulteti (2-qavat, 203-xona).

Dissertatsiya bilan O'zbekiston Milliy universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (___ raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100174, Toshkent shahri, Forobiy ko'chasi, 400-uy. Tel.: (99871) 246-08-62; faks: (99871) 246-65-24.

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil «___» _____ kuni tarqatildi
(2023-yil «___» _____ dagi ___ raqamli reyestr bayonnomasi).

A.G.Sheremeteva

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi,
filol. f. d., professor

N.E.Abdullayeva

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy
kotibi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa
doktori (PhD), dotsent

I.A.Siddiqova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi
ilmiy seminar raisi, filol. f. d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunosligida hind-yevropa tillari o'rtasidagi genetik munosabatlarni o'rganish Frans Boppdan boshlab va hozirgi kungacha jahon tilshunosligida uzoq tarixga ega. So'nggi yillarda hind-yevropa tillarida so'zlashuvchi xalqlarning ajdodlari vatani haqidagi tilga oid nazariyalarning kelib chiqishi masalasiga ko'proq e'tibor qaratilmoqda.

Dunyo tilshunosligida aniq sabablarga ko'ra, birinchi navbatda, zamonaviy til munosabatlarini o'rganishga yuqori darajada qiziqish mavjud. Shu sababdan, tarixiy lingvistik, etnik va madaniy munosabatlarni o'rganishga kamroq e'tibor beriladi, shunday bo'lsa-da, ular o'z ahamiyatini yo'qotmaydi.

Mamlakatimizda ilm-fanni rivojlantirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Shu munosabat bilan nafaqat zamonaviy tadqiqotlarga bag'ishlangan, aniq bir natijani ta'minlovchi ilmiy tadqiqotlar, balki «klassik» deb ataladigan tadqiqotlar ham muhimdir. Ushbu tadqiqot ishi german (birinchi navbatda, qadimgi german) tillarining eron tillari oilasiga mansub bo'lgan tillardan biri – bugungi kunda osetin tili bo'lgan skif tili bilan munosabatlarini qiyosiy tarixiy va qiyosiy chog'ishtirma o'rganishga bag'ishlangan. Osetin tili skif-sarmat lahjalaridan birining vakili bo'lib, yaxlit yozma yodgorliklarga ega emas. Binobarin, ushbu tadqiqot ishi V.I.Abayevning «Osetin tilining tarixiy-etimologik lug'ati» asosida yaratilgan bo'lib, hozirda osetin tili va butun xalq tarixini chuqur hamda mukammal o'rganuvchi yagona asar hisoblanadi. Etimologik lug'at to'rt jilddan iborat. Shunisi e'tiborga loyiqki, «Skif-yevropa leksik izoglosslari» haqidagi manbalar faqat oxirgi uch jildda mavjud. Birinchi jildda bu terminning topilmaganligi tushunarli hol. 1973-1989-yillarda nashr etilgan oxirgi uch jildning lug'at boyligi V.I.Abayevning osetin-yevropa munosabatlari nuqtai nazaridan chuqurroq berilgan. Skif-yevropa izoglosslarini alohida o'rganish uning «Skif-yevropa izoglosslari» (1965) asarida o'z aksini topgan bo'lib, unda boshqa izoglosslar qatori etimologik lug'atning birinchi jildida keltirilgan german-osetin leksik parallellaridan otlarning qisqacha sharhi berilgan. Ayni paytda, mamlakatimizda fan va ta'limga katta e'tibor qaratilmoqda. Shu o'rinda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning «Biz o'z oldimizga mamlakatimizda Uchinchi Renessans poydevorini barpo etishdek ulug' maqsadni qo'ygan ekanmiz, buning uchun yangi Xorazmiylar, Beruniylar, Ibn Sinolar, Ulug'beklar, Navoiy va Boburlarni tarbiyalab beradigan muhit hamda sharoitlarni yaratishimiz kerak. Bunda, avvalo, ta'lim va tarbiyani rivojlantirish, sog'lom turmush tarzini qaror toptirish, ilm-fan va innovatsiyalarni taraqqiy ettirish milliy g'oyamizning asosiy ustunlari bo'lib xizmat qilishi lozim»¹ – degan fikrlari juda o'rinlidir. Rivojlanayotgan ilm-fan dunyosida har doim tadqiqot uchun qiziqarli yo'nalishlar mavjud. Ana shunday yo'nalishlardan biri ikki tilning lug'at boyligini etimologik o'rganishdir.

Ushbu tadqiqot eron tillaridan biri osetin tili va german tillarini qiyosiy-tarixiy tadqiq qilishga bag'ishlangan. Osetin tili skif-sarmat shevalaridan birining davomchisi (aynan alan qabilasi) hisoblanadi. Ammo ular ma'lumki, to'liq yozma yodgorliklarga

¹ Послание Президента Республики Узбекистан Шаката Мирзиёева Олий Мажлису 29.12.2020. [Электронный ресурс] URL: [Послание Президента Республики Узбекистан Шавката Мирзиёева Олий Мажлису (president.uz)] (14.05.2023)

ega emas. Shuning uchun ushbu dissertatsiya ishi V.I.Abayevning «Osetin tilining tarixiy-etimologik lugʻatiga» asoslangan.

V.I.Abayevning tadqiqotida taʼkidlanishicha, osetin tili eron tillarining orasida alohida oʻrin tutishi bilan ajralib turadi va shu bilan birga maʼlum qirralarga ega boʻlib, ular hind-yevropa tillar oilasining yevropa qismini vakillari bilan yaqinlashtiradi.

German tillari, eng avvalo, qadimiy german tillari boʻlgan got tili, qadimiy shimoliy (island tili), qadimiy yuqori nemis qadimiy sakson (ingliz) va h.k. tillardan iboratdir.

German-skif leksik munosabatlari muammosini tadqiq etishning nisbatan kamligi, shuningdek, bu boradagi soʻnggi tadqiqotlar V.I.Abayevga tegishlilik 20-asrning oxirida ushbu dissertatsiya mavzusini tanlashni belgilab berdi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, german tillarining osetin tili bilan, toʻgʻrirogʻi, uning ajdodi – eron tillaridan birining vakili boʻlgan alan tili bilan til aloqalarini oʻrganish qiyosiy tarixiy tilshunoslikning **dolzarb muammolaridan** biridir.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli «Oʻzbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish boʻyicha Harakatlar strategiyasi toʻgʻrisida», Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-sonli «Oʻzbekiston Respublikasi xalq taʼlimi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash toʻgʻrisida»gi Farmoni, 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-sonli «Oliy taʼlim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida», 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-sonli «Oliy taʼlim muassasalarida taʼlim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini taʼminlash boʻyicha qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida»gi Qarorlari, Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 11-avgustdagi 610-sonli «Taʼlim muassasalarida chet tillarini oʻqitish sifatini yanada oshirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida»gi qarori, Oʻzbekiston Respublikasining 2019-yil 29-oktabrdagi OʻRQ-576-sonli «Fan va ilmiy faoliyat toʻgʻrisida»gi qonuni va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar ijrosiga xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yoʻnalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning «Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, maʼnaviy-maʼrifiy rivojlantirish innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish» ustuvor yoʻnalishi doirasida amalga oshirilgan.

Muammoning oʻrganilganlik darajasi. Qiyosiy-tarixiy va tipologik tilshunoslikning uzoq tarixiga qaramay, hind-yevropa tillarining gʻarbiy guruhi va eron tillari (ayniqsa, osetin tili bilan) oʻrtasidagi til aloqalarining maxsus tadqiqotlariga juda kam asarlar bagʻishlangan. Shunday qilib, V.I.Abayev² va M.P.Dadashev³lar osetin tilining hind-yevropa tillari oilasining baʼzi yevropa tillari

² Абаев В.И. К скифо-европейским лексическим связям // Этимология 1966. – М.: Наука, 1968; Абаев В.И. О перекрестных изоглоссах // Этимология 1966. – М.: Наука, 1968; Абаев В.И. Скифо-европейские изоглоссы на стыке Востока и Запада. – М.: Наука, 1965; Абаев В. И. Историко-этимологический словарь осетинского языка. В 4-х томах. – М., Л.: Изд-во Академии наук СССР, 1958-1989.

³ Дадашев М.П. Лексические связи германских языков с иранскими. Автореф. дисс. ... к. филол. наук. – М.: МГПИИЯ, 1965.

bilan lingvistik aloqalarini tadqiq etishgan. Har ikki olim german-osetin tillaridagi maxsus aloqalarni o'z tadqiqotlarining bir qismi sifatida ko'rib chiqadilar. German-osetin (alan) lug'aviy bog'lanishlariga bag'ishlangan asarlar qatorida R.Lyove, M.Mayrhofer, H.Petersson, N.Vagner⁴ kabi nemiszabon olimlarning alohida tadqiqotlarini ham qayd etish lozim.

O'zbekistonda german-skif (eron) aloqalariga oid tadqiqotlar mavjud emas.

Yevropa va hind-eron tillari o'rtasidagi munosabat o'rnatilgandan beri ushbu tillar uchun umumiy tayanch tilni (proto-til deb ataladigan) qayta qurishga, shuningdek, hind-yevropaliklar ajdodlari vatanini aniqlashga harakat qilindi. Shu munosabat bilan ikki hind-yevropashunos olim T.V.Gamkrelidze va V.V.Ivanovlarning⁵ birgalikdagi ishi alohida qiziqish uyg'otadi.

Ammo, shu kungacha, german-eron tillari aloqalariga doir olib borilgan tadqiqotlarda qiyosiy-tipologik tahlil masalalari yetarlicha yoritilmagan edi.

Dissertatsiya tadqiqoti mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan Oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi. Ushbu tadqiqot O'zbekiston Milliy universiteti xorijiy filologiya fakulteti nemis filologiyasi kafedrasida o'rtasida «Germanistika institutlarining hamkorligi (GIH)» hamkorlik loyihasi Mirzo Ulug'bek (Toshkent / O'zbekiston) va Vilgelm nomidagi Vestfaliya universiteti Germanistika instituti (Myunster / Germaniya) doirasida amalga oshirildi. Dissertatsiya nemis filologiyasi kafedrasining «Tarjimashunoslik va tilshunoslikning dolzarb muammolari» tadqiqot ishining mavzusiga mos keladi.

Tadqiqotning maqsadi V.I.Abayevning etimologik lug'atining birinchi jildi materiali bo'yicha german-skif leksik izoglosslarini aniqlash orqali ularni zamonaviy nemis tilida aks ettirishni o'rganishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

german va skif tillarida so'zlashuvchilar o'rtasidagi aloqalar imkoniyatlarini asoslovchi tarixiy faktlarni o'rganish;

german-osetin izoglosslarini german va skif tillarida so'zlashuvchilarning tarixiy aloqalarini hisobga olgan holda ikki xronologik qatlamga taqsimlash;

V.I.Abayevning «Osetin tilining tarixiy-etimologik lug'ati»ning birinchi jildiga muvofiq to'g'ridan-to'g'ri tanlab olish usulidan foydalangan holda german-osetin leksik paralelliklarini tasdiqlash;

tanlab olingan german-skif leksik izoglosslarining etimologik tahlilini o'tkazish.

Tadqiqotning obyekti aynan ot so'z turkumiga mansub german-skif leksik izoglosslari tadqiqidan iborat bo'lib, ular V.I.Abayevning «Osetin tilining tarixiy-etimologik lug'at»ning birinchi tomidan topilgan.

Tadqiqotning predmeti sifatida german va eronzabon skiflar o'rtasidagi

⁴ Loewe R. Gotisch und Alanisch // Indogermanische Forschungen. – № 3. – Strassburg, 1894. – S. 146-147; Mayrhofer M. Germano-Iranica // Zeitschrift für vergleichende Sprachforschung. – № 84. – Göttingen, 1970. – S. 224-230; Petersson H. Etymologische Miscellen // Lunds Universitets Årsskrift N.F. Avd. 1. Bd. 19. – № 6. – Lund, 1923. – S. 3-45; Wagner N. Ostgermanisch-alanisch-hunnische Beziehungen bei Personennamen // Studien zur deutschen Literatur des Mittelalters. Hrsg. von Rudolf Schützeichel. – Bonn: Bouvier Verlag Herbert Grundmann, 1979. – S. 11-33.

⁵ Гамкrelidze Т.В., Иванов В.В. Индоевропейский язык и индоевропейцы. Реконструкция и историко-типологический анализ праязыка и протокультуры. В 2 томах. – Тбилиси: Изд. Тбилисского университета, 1984 (IYail).

tarixiy hamda lingvistik aloqalarni ochib beruvchi izoglosslar tanlangan.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya tadqiqoti asosiy qiyosiy-tarixiy metodning qo'llash orqali amalga oshirildi: german va osetin leksik birliklari o'rtasida genetik aloqani o'rnatish usuli, qadimgi shakllarni qayta tiklash hamda german va eron (osetin) shakllari o'rtasida nisbiy xronologiyani o'rnatishdan foydalangan holda amalga oshirildi. Qiyosiy-tarixiy usul bilan bir qatorda madaniy-tarixiy va statistik usul ham qo'llanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagi natijalar bilan belgilanadi:

birinchi marta german-skif aloqalariga oid «Osetin tilining tarixiy-etimologik lug'ati» materiali asosida german-osetin qad.nem *egida* «sixmola» – oset. *asojnæ* «sixmola», nem. *acht* «sakkiz» – oset. ast «sakkiz», ingl. *chamber* «bufalo» – oset. *æmbaj* «tengdosh» kabi leksik parallellarining o'ziga xos xususiyatlari dalillangan;

german va osetin tillari leksik fondining o'zaro tarixiy aloqalar mezonini hamda uning ikki davrga, ya'ni ko'rib chiqilayotgan aloqa davrlarining eng qadimiysi – qadimgi yevropaliklar va skiflar o'rtasidagi (taxminan miloddan avvalgi III-II ming yilliklar) hamda keyinchalik germanlar va skiflar o'rtasidagi aloqalar (eramizning boshi – milodiy IV asr) davrlariga bo'linishi asoslangan;

V.I.Abayev tomonidan tavsiya etilgan ba'zi german parallellariga oid holatlar har qanday aloqa davrlari bilan aniq bog'lanib bo'lmasligi yoki ulardan umuman biron bir aloqaning dalil sifatida foydalanish mumkin emasligi sababli ularning osetin so'zlariga parallell ekanligiga shubhalar mavjudligi asoslangan;

german-skif til aloqalari jarayonidagi nem. *Hanf* 'kanop', *occa* 'sixmola', qad.nem. *fel(a)wa* 'tol, tol daraxti', qad.nem. *hōla* 'chov churrasi', germ. **span* – 5 ta leksik birliklar bilan bog'liq birinchi davr hamda got. **alut*, ingl. *ale* 'el' – oset. *ælūton* 'maxsus pivo tayyorlash', inglsaks. *spīr* 'boshqoq, barg' – va oset. *æfsīr* 'boshqoq', qad.nem. *path* 'yo'l, so'qmoq' – oset. *fætæg* 'yetakchi, sardor' – 3 ta leksik birliklar bilan bog'liq ikkinchi davrlar isbotlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

O'zbekiston kutubxonalarida mavjud bo'lmagan, asosan nemis tilidagi ilmiy-tadqiqot adabiyotlarining tahliliy sharhida taqdim etilgan birinchi bobning materialidan «Tilshunoslikka kirish» va «Umumiy tilshunoslik» fanlaridan ma'ruza o'qishda qo'shimcha material sifatida amaliyotga tadbiiq etilgan;

tadqiqotning amaliy materialidan «German filologiyasiga kirish», qiyosiy tarixiy tilshunoslik, nemis va eron tillari tarixi va leksikologiyasi kurslarida ma'ruzalar tuzish, shuningdek, universitetlarning til fakultetlarida maxsus kursni o'qish uchun foydalanilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tahlil natijasida olingan ishonchli xulosalar, shuningdek, ko'rib chiqilgan ko'plab nazariy va faktik materiallar, milliy va xorijiy jurnallarda maqolalar nashr etilishi, konferensiya materiallari, xulosalar, takliflar va tavsiyalarning amaliyotga tadbiiq qilingani, shuningdek, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Tadqiqotning ilmiy ahamiyati qiyosiy tarixiy va qiyosiy tilshunoslik rivojiga qo'shgan muayyan hissasi bilan bog'liq. Tadqiqot natijalari german-skif leksik va

tarixiy aloqalari sohasidagi keyingi tadqiqotlar uchun asos bo'lib, shuningdek, lug'at tarkibidagi etimologik jihatdan noaniq masalalarga oydinlik kiritilishiga xizmat qiladi.

Tadqiqotning nazariy natijalaridan talaba va magistrning ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishda foydalanish mumkin.

Tadqiqot materiallari, dissertatsiya tadqiqotining natijalari va xulosalari oliy o'quv yurtlarida «German filologiyasiga kirish», «Umumiy tilshunoslik», «Qiyosiy tipologiya», «Nemis tili tarixi» fanlari bo'yicha o'quv jarayoniga kiritilishiga amaliy manba bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. German-skif leksik izoglosslari tadqiqi jarayonida olingan nazariy ishlanmalar va amaliy natijalar asosida:

birinchi marta german-skif aloqalariga oid «Osetin tilining tarixiy-etimologik lug'ati» materiali asosida german-oseyin qad.nem *egida* «sixmola» – oset. *asojnæ* «sixmola», nem. *acht* «sakkiz» – oset. *ast* «sakkiz», ingl. *chamber* «bufalo» – oset. *æmbaj* «tengdosh» kabi leksik parallellarining o'ziga xos xususiyatlari hamda german va osetin tillari leksik fondining o'zaro tarixiy aloqalar me'zoni hamda uning ikki davrga, ya'ni ko'rib chiqilayotgan aloqa davrlarining eng qadimiysi – qadimgi yevropaliklar va skiflar o'rtasidagi (taxminan miloddan avvalgi III-II ming yilliklar) hamda keyinchalik germanlar va skiflar o'rtasidagi aloqalar (eramizning boshi – milodiy IV asr) davrlariga bo'linishiga oid xulosalardan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida 2021-2023-yillarda bajarilgan F3-201912258- raqamli «O'zbek adabiyotining ko'p tilli (o'zbek, rus, ingliz tillarida) elektron platformasini yaratish» mavzusidagi amaliy loyihada foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti univesitetining 2023-yil 03-apreldagi 03/1-672-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, badiiy asarlarni va maqolalarni o'zbek tilidan xorijiy tillarga yoki xorijiy tillardan o'zbek tiliga tarjima qilish jarayonida tarjima sifatini oshirishga erishilgan;

V.I.Abayev tomonidan tavsiya etilgan ba'zi german parallellariga oid holatlar har qanday aloqa davrlari bilan aniq bog'lanib bo'lmasligi yoki ulardan umuman biron bir aloqaning dalil sifatida foydalanish mumkin emasligi sababli ularning osetin so'zlariga parallell ekanligiga shubhalar mavjudligiga xulosalardan O'zbekiston Milliy universitetining o'quv jarayonida foydalangan (Oliy ta'lim rivojlantirish tadqiqotlari va ilg'or texnologiyalarni tatbiq etish markazining 2023-yil 29-martdagi 02/01-01-47-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, mazkur fanlarning ilmiy materialini boyitishga xizmat qilgan;

german-skif til aloqalari jarayonidagi nem. *Hanf* 'kanop', *occa* 'sixmola', qad.nem. *fel(a)wa* 'tol, tol daraxti', qad.nem. *hōla* 'chov churrasi', germ. **span* – 5 ta leksik birliklar bilan bog'liq birinchi davr hamda got. **alut*, ingl. *ale* 'el' – oset. *ælūton* 'maxsus pivo tayyorlash', inglsaks. *spīr* 'boshqoq, barg' – va oset. *æfsīr* 'boshqoq', qad.nem. *path* 'yo'l, so'qmoq' – oset. *fætæg* 'yetakchi, sardor' – 3 ta leksik birliklar bilan bog'liq ikkinchi davrlarga oid xulosalardan O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi «O'zbekiston tarixi» kanalining «Hamma uchun» va «Taqqimot» ko'rsatuvlarining ssenariyasini tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyaning 2023-yil 23-yanvardagi 06-28-122-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, dissertatsiya ishining ilmiy natijalari o'zining umumiy ilmiy va madaniy-ma'rifiy ahamiyati bilan teleko'rsatuvlarning mazmunini boyitishga

yordam bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda ma'ruzalar qilingan, ilmiy-metodik seminarlarda muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 27 ta ilmiy ish chop etilgan, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiyasi komissiyasi tomonidan dissertatsiyaning asosiy ilmiy natijalarini nashr etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 8 ta maqola, shulardan 5 tasi respublika va 3 tasi xorijiy ilmiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Tadqiqotning hajmi 128 sahifani tashkil qiladi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Ishning **Kirish qismi** tanlangan mavzuning asosi, uning dolzarbligi va yangiligini qamrab oladi. Shuningdek, bu qismda ishning maqsadi va vazifalari, uning respublika fan va texnologiyalarning ustuvor yo'nalishlari bilan bog'liqligi keltirilgan, tadqiqot mavzusi bo'yicha xorijiy va mahalliy adabiyotlar sharhi ko'rsatilgan, ishning maqsadi va vazifalari, obyekt va predmeti aniqlangan, qo'llanilgan tadqiqot usullari ko'rsatib o'tilgan, tadqiqotning yangiligi ochib berilgan, tadqiqotning ilmiy va amaliy ahamiyati bayon qilingan, olingan natijalarning ishonchliligi asoslangan, dissertatsiya ishining amaliyotga tadbiiq qilinishi, mavzu bo'yicha nashr qilingan ishlar, aprobatsiyasi hamda dissertatsiya tuzilishi to'g'risidagi ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi «German-skif aloqalarini tadqiq qilish tarixi masalasi» deb atalib, uchta paragrafdan iborat. Birinchi bobi zamonaviy qiyosiy tadqiqotlar, xususan, hind-yevropa tilshunosligi va germanistika bo'yicha tadqiqotlari uchun mavjud bo'lgan ilmiy yutuqlarni o'rganishga bag'ishlangan. Ushbu bobda XIX asrning birinchi yarmida F.Bopp⁶ tadqiqotlaridan boshlab, hind-yevropa tillari sohasidagi tadqiqotlarning qisqacha tahliliy sharhi hamda T.V.Gamkrelidze va Vyach.Vs.Ivanov⁷ tomonidan yozilgan ushbu sohadagi so'nggi ishlardan biri «Hind-yevropa tili va hind-yevropaliklar» nomli asar analitik tahlil qilingan. Biz qiyosiy tarixiy tilshunoslik sohasidagi boshqa tadqiqotlar orasida german-eron tillari munosabatlarini tadqiq qilishning o'rnini tushunish va turli olimlar tomonidan ushbu muammoga yondashuv tushunchalarini ko'rib chiqish uchun qiyosiy tarixiy tilshunoslikning shakllanishini tahlil qilishni zarur deb topdik. Ushbu ishlarning tadqiqi shuni ko'rsatdiki, asosiy e'tibor Yevropa va hind-eron tillarining genetik jihatdan qarindoshligiga, ularning qadimiy vatanini aniqlash va shu til sohiblarining tarixiy makonda geografik jihatdan migratsiya yo'llari bilan joylashini tadqiq qilishga asosiy e'tibor qaratildi.

Hind-yevropa tilining bo'linishiga oid uchta asosiy nazariya mavjud bo'lib, ular

⁶ Bopp F. Kleine Schriften zur vergleichenden Sprachwissenschaft. Gesammelte Berliner Akademieabhandlungen 1824-1854. – Leipzig: Zentralantiquariat der Deutschen Demokratischen Republik, 1972.

⁷ Гамкредидзе Т.В., Иванов В.В. Индоевропейский язык и индоевропейцы. Реконструкция и историко-типологический анализ праязыка и протокультуры. В 2 томах. – Тбилиси: Изд. Тбилисского университета, 1984.

quyidagilar:

1. Avgust Shleyxerning «Oila daraxti nazariyasi» (XIX asrning 60-yillari).
2. Yohann Shmidtning «To‘lqinlar nazariyasi» (XIX asrning 70-yillari).
3. Hans Krayening «Qadimgi Yevropa tili» xususidagi konsepsiyasi (XX asrning 50-yillari).

Ushbu dissertatsiya ishida biz Yevropa tillarining (italiy, german, boltiqbo‘yi va slavyan) til rivojlanish tarixida mavjudligi, ular rivojlanishining ma’lum bir oraliq bosqichi – qadimgi Yevropa jamiyati, (H.Kraye⁸ga ko‘ra, «qadimgi Yevropa tili», Gamkrelidze va Vyach.Vs.Ivanov⁹ga ko‘ra, «qadimgi Yevropa dialektlari») mavjud degan taxmini quvvatlaymiz.

German-eron tillari tadqiqi, tarixiy va lingvistik aloqalari (M.Mayrxofer, M.P.Dadashev) umumiy tarzda o‘rganilgan hamda german-alan (osetin) tillarining qisman o‘rganilishi (R.Levet, X.Petersson, N.Vagner, V.I.Abayev) uzoq davrga borib taqaladi. Nemis va rus tilshunoslarining ba’zi asarlari ushbu mavzuga bag‘ishlangan. Har bir ishda german-eron tillari aloqalarining aniq masalasi yoritilgan. Shunday qilib, M.Mayrhofer va N.Vagner german-fors (alan) tillari aloqalarini atoqli otlar asosida tadqiq qildilar. M.P.Dadashev o‘zining dissertatsiyasini german-fors tillari aloqalarini o‘rganishga bag‘ishlagan. Faqat R.Levi, H.Peterson va V.I.Abayev alan tilining avlodi sifatida german tillari hamda osetin tillari o‘rtasidagi maxsus leksik muvofiqlikni o‘rganib chiqdi. R.Lyove va X.Peterssonning ilmiy nashrlarida alohida so‘zlar mavjud bo‘lib (besh – X.Petersson, uch – R.Lyovda), R.Lyove tomonidan qilingan bu so‘zlarning etimologik tahlili, boshqa tilshunoslar tomonidan tasdiqlanmagan.

Faqat V.I.Abayevning asarlari osetinlar va ularning ajdodlarining boshqa xalqlar bilan aloqalarini chuqur o‘rganishga bag‘ishlangan. U osetin tilining umuman Yevropa tillari hamda ular orasida german tillari bilan aloqalarini o‘rganib chiqdi.

V.I.Abayevning «Osetin tilining tarixiy-etimologik lug‘ati» 1958-1989-yillar oralig‘ida nashr etilgan bo‘lib, u to‘rt jilddan iborat. Birinchi va ikkinchi jildlar orasida taxminan 15 yil farq mavjud. Oxirgi uchinchisi jildi 1973 (II jild), 1979 (III jild) va 1989 (IV jild) yillarda nashr etilgan. Ushbu lug‘at V.I.Abayevning asosiy asari bo‘lib, osetin tili va osetinlar tarixi bo‘yicha ko‘p yillik mehnati natijasidir.

Yuqorida aytib o‘tilganidek, birinchi va ikkinchi jildlar orasidagi farq taxminan 15 yil. Birinchi jildning o‘ziga xos xususiyatiga aylandi hamda «izogloss» tushunchasini qamrab olinmaganligi uning boshqa jildlardan farqini belgilab berdi. V.I.Abayev 1965-yilda «skif-Yevropa izoglosslari» asarini nashr etish orqali bu bo‘shliqni qisman to‘ldirdi. Muallif etimologik lug‘atini o‘zining «qo‘shimcha mahsuloti» deb ataydi¹⁰.

«Skif-Yevropa/german izogloss» atamasi faqat oxirgi uch jildda qayd qilinganligi sababli, ularni yanada chuqurroq o‘rganishni talab etadi. Lug‘atning

⁸ Krahe H. Sprache und Vorzeit. Europäische Vorgeschichte nach dem Zeugnis der Sprache. – Heidelberg: Quelle & Meyer, 1954.

⁹ Гамкрелидзе Т.В., Иванов В.В. Индоевропейский язык и индоевропейцы. Реконструкция и историко-типологический анализ праязыка и протокультуры. В 2 томах. – Тбилиси: Изд. Тбилисского университета, 1984.

¹⁰ Абаев В.И. Скифо-европейские изоглоссы на стыке Востока и Запада. – М.: Наука, 1965. – С. 144.

o'ziga xosligi shundaki, V.I.Abayev lug'atni tasvirlashda har doim ham «skif-yevropa» yoki «skif-german izogloss» terminologiyasidan foydalanmaydi. Ko'pincha «...ga yaqin», «...ga maxsus semantik yaqinlik» kabi iboralar mavjud. Ba'zan bu chalkashlik tug'diradi, chunki muallif izoglossni nazarda tutadimi yoki shunchaki illustratsiya sifatida (semantik) parallelni keltiradi. Natijada, bunga har doim ham ishonch hosil qilish mumkin emas. Bu uning «Skif-yevropa izoglosslari» asarida ham uchraydi, bu yerda muallif parallellikka asoslanib, izoglosslarni ko'rishini nazarda tutadi. Shunday qilib, bu bob V.I.Abayevning «Osetin tilining tarixiy-etimologik lug'ati»ning birinchi jildidagi osetin-german parallellarini o'rganish zarurligi to'g'risidagi xulosalarni o'z ichiga oladi.

Dissertatsiyaning **ikkinchi bobi «German va skif tillarida so'zlashuvchilar o'rtasida tarixiy aloqalar»** deb nomlanib uchta bo'limdan iborat. Unda turli xil ma'nolarga ega bo'lgan «skiflar» atamasi tahlil qilinadi. Shu bilan birga, navbatdagi ikkita bo'lim Yevropa tillarida so'zlashuvchi til sohiblari va skif-sarmat lahjalaridan bo'lgan qadimiy yevropa-skif tili hamda german-skif tillari o'rtasidagi aloqalarning tarixiy davrlaridan biriga bag'ishlangan. Bu esa eroniy tilda so'zlashuvchi «skiflar»ning, birinchi navbatda, zamonaviy yevropaliklar (ular orasida nemislar ham bor) bilan aloqalarni o'rganishga va keyinchalik aynan nemislarning o'zlari bilan bo'lgan aloqalarining tarixiy holatlarni tadqiq etishga undaydi.

Skif, sarmat va alan qabilalari o'rtasida tarixiy chambarchas bog'liqlik mavjud. Ushbu qabilalarning so'zlashuv tillari genetik jihatdan bog'liqdir. Ular hind-yevropa tillari oilasining eron tillari guruhiga tegishlidir. Ushbu holat skif tilini sarmat tilidan ajratishni qiyinlashtiradi. Bundan tashqari, skif tilining o'zi bir xil bo'lmagan va u bir nechta lahjalar bilan ifodalangan.

Skif, sarmat va alan tillaridagi yozma yodgorliklarda izchil aloqadorlik mavjud emas. Bizdagi mavjud etnonimlar, antroponimlar va toponimlar, asosan, (grek) tilida bo'lib, ular skif, sarmat yoki alan tillarida ekanligi noaniq, binobarin, bu tillarning barchasi eron tillari oilasiga tegishli hisoblanadi.

Ushbu dissertatsiyada V.I.Abayev talqinidagi «skif» tushunchasi qo'llanilgan¹¹. «Skif tili» atamasi miloddan avvalgi VIII-VII asrlardan milodiy IV-V asrlargacha bo'lgan davrda shimoliy Qora dengiz hududida so'zlashiladigan barcha eroniy skif-sarmat lahjalarini anglatadi. «Skif tili» uchun asosiy ma'lumot manbai sifatida V.I.Abayevning «Osetin tilining tarixiy-etimologik lug'ati» kitobi ishlatiladi, chunki osetin tili ushbu qadimiy tillarning vakili bo'lib xizmat qilishi mumkin. Shunday qilib, «skif» atamasining lingvistik tushunchasi tarixning otasi Gerodot tomonidan faqat shartli ravishda tilga olingan xalq – skiflar bilan bog'liq. Shuning uchun bu atama ushbu tadqiqot ishida qo'shtirnoq ichida ishlatiladi.

Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, ularning rivojlanishida hind-yevropa tillari oilasiga kiruvchi ba'zi yevropa tillari qadimgi Yevropa tillari jamiyati deb nomlangan oraliq rivojlanish bosqichiga ega edi. M.Myullerning qarashlari Ye.Lottner, H.Kraye tomonidan yanada rivojlantirildi. Yevropa gidronimlarini o'rganish asosida H. Kraye g'arbiy hind-yevropa tillari rivojlanishida oraliq bosqich mavjudligini taklif qildi va buni dialekt jamoasini «qadimgi Yevropa tillarining» dialekt umumiyliги deb atadi hamda bu davr Markaziy va G'arbiy Yevropa uchun miloddan avvalgi II ming

¹¹ Абаев В.И. Осетинский язык и фольклор I. – М., Л.: Изд. Академии наук, 1949. – С. 147.

yillikka to'g'ri kelishini belgilab berdi¹².

Qadimgi Yevropa dialektlarining mavjudligini T.V.Gamkrelidze va Vyach.Vs.Ivanov hamda V.I.Abayevlar kabi zamonaviy olimlar ham tan olishgan. T.V.Gamkrelidze va Vyach.Vs.Ivanovlarning nazariyasi qadimgi Yevropa dialektlarida so'zlashuvchi til sohiblarining yaqin Osiyodan Markaziy Osiyo orqali shimolga Volga dashtlari hamda ularning eroniyzabon skiflar birinchi aloqalarini (ko'rib chiqilgan) Shimoliy Qora dengiz mintaqasi orqali Yevropaga ko'chib o'tishganligini taxmin qiladi.

Qadimgi Yevropa dialektlarida so'zlashuvchi til sohiblari Yevropaga ko'chib o'tib, skif lahjalarida so'zlashuvchilar bilan aloqa qilishgan. Shunday qilib, bu davrda paydo bo'lgan leksik muvofiqlik skif va qadimgi Yevropa jamiyatining tillari (italiy, german, boltiqbo'yi va slavyan), shu jumladan german tillari uchun ham umumiy bo'lishi kerak edi.

Keyinchalik (eramizning boshi – milodiy IV asr) skif-sarmat lahjalarida so'zlashuvchilar mustaqil ravishda german dialektlarida so'zlashuvchilar bilan aloqa qilishdi. Qora dengiz sohilida yashagan birinchi german qabilalari bastarn va skir xalqlari bo'lib, bu hududda ular eramizgacha bo'lgan davrda 230 yil atrofida yashagan¹³. Biroq eng uzoq va eng yaqin aloqalar alanlar (osetinlarning ajdodlari) hamda gotlar o'rtasida bo'lgan.

Gotlar istilolarining birinchi davri milodiy 269 yillar atrofida, got qo'shinlari imperator Klavdiy II (Claudius II) tomonidan mag'lubiyatga uchraganida tugaydi. Imperator Klavdiy II shuning uchun «Gothicus» unvonini oldi. IV asr o'rtalarida sharqiy gotlar (Ostrogothi) qirol Ermanarix boshchiligida kuchli davlatga asos solgan. Xunnlarning g'arbga tomon harbiy kengayishi davrida (370 yildan avvalroq) alanlar ularning to'liq qudratini his etgan birinchi xalq edi¹⁴. Alanlarning aksariyati xunlarga qo'shilib, gepidlar va skirlar bilan birgalikda harbiy yurishlarda (shu jumladan, gotlarga qarshi) qatnashgan. Ostrogotlarning aksariyati milodiy 375 yilda xunlar tomonidan mag'lub etilgan. Ularning yana bir guruhi – bu yerda H.Volfram¹⁵ ularni alanlar deb ataydi – mutlaqo xunlarga qo'shiladi. Shunday qilib, V.Birbrauyerning¹⁶ so'zlariga ko'ra, milodiy 380-yilda Panoniyada joylashgan sharqiy germanlar, alanlar va xunlarning «uch xalq koalitsiyasi» paydo bo'ladi. Shunday ekan, bu davrdagi leksik izoglosslar german va «skif» tillari uchun umumiy bo'lishi kerak edi.

Dissertatsiyaning **uchinchi bobi «Leksik izoglosslar»** deb nomlangan bo'lib, «Osetin tilining tarixiy-etimologik lug'ati» ning birinchi jildidan tanlab olingan otlarni (97 leksik birlik) tahlil qilishga bag'ishlangan. Unda V.I.Abayev osetin tilidagi otlarga german tiliga xos parallellikni ko'rsatib o'tgan.

Bu yerda asosiy atama «leksik izogloss»dir. «Izogloss» tushunchasining

¹² Krahe H. Sprachliche Aufgliederung und Sprachbewegungen in Alteuropa // Abhandlungen der geistes- und sozialwissenschaftlichen Klasse. № 1. – Mainz, 1959. – S. 1-24.

¹³ Klein K.K. Germanen in Südosteuropa // Völker und Kulturen Südosteuropas. Kulturhistorische Beiträge. – München: Südosteuropa-Verlagsgesellschaft, 1959. – S. 34.

¹⁴ Wenskus R., Ozols J. Alanen // Reallexikon der Germanischen Altertumskunde. Bd. I. – Berlin, 1973. – S. 123; Pohl. W. Hunnen // Reallexikon der Germanischen Altertumskunde. Bd. XV. – Berlin, New York: de Gruyter, 2000. – S. 248.

¹⁵ Wolfram H. Die Goten und ihre Geschichte. – München: Beck, 2001. – S. 47

¹⁶ Bierbrauer V. Goten // Reallexikon der Germanischen Altertumskunde. Bd. XII. – Berlin, New York: de Gruyter, 1998. – S. 419.

ta'rifini har qanday lingvistik lug'atlardan topish mumkin. Biroq nemis tilidagi nashrlarda keltirilgan ta'riflar to'liq emasligi ma'lum bo'ldi. Ko'pincha bu konsepsiyani faqat bitta, juda tor talqini mavjud. «Izogloss» tushunchasi, asosan, dialektologik atamadir.

Ma'lumki, hind-yevropa dialektlari o'rtasidagi munosabatlarni o'rganishda dialektologik usuldan foydalanish birinchi marotaba A.Meyer tomonidan qo'llanilgan. Hind-yevropa xalqlarining taxminiy bobo tili dialektlardan iborat degan taxminning vakili sifatida u izoglosslar yordamida hind-yevropa dialektlarini o'rganishga harakat qildi.

A.Meyer davridan boshlab bu tushuncha qiyosiy tilshunoslikda va areal lingvistikada keng qo'llaniladi.

V.I.Abayev «izogloss» larni quyidagicha aniqlaydi. Biz «skif-yevropa izoglosslari» nomi ostida leksika, fonetika, grammatika, shuningdek, morfologiyadagi o'ziga xos hodisalar, ya'ni osetin, «skif» tillarini Yevropa tillari (slavyan, boltiqbo'yi, to'xar, german, italiy, kelt) bilan yaqinlashtiruvchi bir qator o'ziga xos hodisalarni umumlashtiramiz»¹⁷. Ushbu konsepsiyani shakllanishida fazoviy va kartografik jihatlarining qo'llanilishi ikkilamchi holatga aylanadi. Buning o'rniga lingvistik hodisalarning o'xshashligini aniqlash asosiy o'ringa chiqadi.

Hind-Yevropa tillari o'rtasidagi munosabatlarni o'rganishda ko'rib chiqilayotgan til darajalariga qarab fonetik, grammatik va leksik izoglosslarga ajratiladi. Grammatik izoglosslar ostida ko'pincha morfologik izoglosslar tushuniladi.

Fonetik va grammatik izoglosslar parallel hamda mustaqil rivojlanish natijasi bo'lishi mumkin. Bundan tashqari, fonetik va grammatik o'zgarishlar birgalikda rivojlanishning uzoq davrini nazarda tutadi hamda qarindoshlik munosabatlarini o'rnatish uchun aynan mos keladi. Leksika, aksincha, tashqi ta'sirga moyil bo'lib, til darajasi sifatida ham vaqtinchalik aloqalarning dalili bo'lib xizmat qilishi mumkin. Shuning uchun ushbu dissertatsiya tadqiqoti leksik izoglosslarni tahlil qilishga asoslangan.

German va skif-sarmat lahjalarida so'zlashuvchi til sohiblari o'rtasidagi maxsus lingvistik munosabatlarni o'rganishga bag'ishlangan nashrlar nisbatan ozchilikni tashkil etadi (Lyove, 1894, Petersson, 1923, Dadashev, 1965; Meyerhofer, 1970; Wagner, 1979)¹⁸. Osetinlar va ularning skif ajdodlarining boshqa xalqlar bilan aloqalari V.I.Abayevning qiziqishlari diqqat markazida bo'lgan. U o'z asarlarida osetin tilining g'arbiy yevropa tillari, shu jumladan, german tillari vakillari bilan aloqalarini o'rgangan. Biroq uning «Osetin tilining tarixiy-etimologik lug'ati» (1958)ning birinchi jildida keyingi uch jildda berilgani kabi «Skif-yevropa izoglosslari»ga havolalar mavjud emas. V.I.Abayev birinchi jilddan bir nechta so'zlar (8 ta leksik birlik)ni o'zining «Skif-yevropa izoglosslari» (1965) asarida kontekstda

¹⁷ Абаев В.И. Скифо-европейские изоглоссы на стыке Востока и Запада. – М.: Наука, 1965. – С. 3.

¹⁸ Loewe R. Gotisch und Alanisch // Indogermanische Forschungen. – № 3. – Strassburg, 1894. – S. 146-147; Petersson H. Etymologische Miscellen // Lunds Universitets Årsskrift N.F. Avd. 1. Bd. 19. – № 6. – Lund, 1923. – S. 3-45; Дадашев М.П. Лексические связи германских языков с иранскими. Автореф. дисс. ... к. филол. наук. – М.: МГПИИЯ, 1965; Meyerhofer M. Germano-Iranica // Zeitschrift für vergleichende Sprachforschung. – № 84. – Göttingen, 1970. – S. 224-230; Wagner N. Ostgermanisch-alanisch-hunnische Beziehungen bei Personennamen // Studien zur deutschen Literatur des Mittelalters. Hrsg. von Rudolf Schützeichel. – Bonn: Bouvier Verlag Herbert Grundmann, 1979. – S. 11-33.

ko'rib chiqadi. Binobarin, ushbu birinchi jildning so'z boyligi yanada puxta o'rganishni talab qiladi. Shunday qilib, ushbu dissertatsiyada german-skif leksik izoglosslarini o'rganish osetin-german o'xshashliklarini V.I.Abayev lug'atining birinchi jildiga ko'ra tahlil qilishga asoslangan.

Hammasi bo'lib, lug'atning birinchi jildida german tillarida grammatik, fonetik va leksik o'xshashliklarga ega bo'lgan 172 ta leksik element (shu jumladan fe'llar, sifatlar va nutqning boshqa qismlari) mavjud bo'lib, ularni german-skif leksik izoglosslari sifatida hisobga olish mumkin.

Biz 97 ta osetin tilidagi ot so'z turkumiga tegishli bo'lgan quyidagi leksemalarni qamrab oldik:

1. Anologik semantik rivojlanishga oid misollar (15 ta leksik birlik).
2. German tillaridagi analogik so'z yasashiga doir misollar (6 ta leksik birlik).

Qayd qilingan parallelliklar ushbu tadqiqotda inobatga olinmadi, chunki ma'noning o'xshash rivojlanishi va o'xshash so'zlarni shakllantirish modellari qardosh tillarga xosdir va tilga oid munosabatlari tadqiq qilish uchun bu element muhim emas.

3. Taqlid so'z, tovush simvolikalari asosida yasalgan 4 ta leksik o'xshashlik va yosh bolaning nutqidagi 3 ta so'z. Ushbu so'zlar bir xil sharoitlarda va analogik sabablarga ko'ra turli tillarda bir-biridan mustaqil ravishda rivojlanishi hamda shuning uchun o'xshash tovush ko'rinishiga ega bo'lishi mumkin.

4. Bu yerda biz, birinchi navbatda, osetin va unga hozir yoki ilgari qardosh bo'lgan tillar leksik parallelliklari (rus, gruzin, turkiy, fin-ugor) yoki ushbu tillardan o'zlashgan leksik birliklar (9 ta leksik birlik) haqida mulohaza yuritamiz.

5. Bundan tashqari umumiy ro'yxatdan *Būræfærnyg* | *Boræfærnyg* oti qamrab olindi va shu kabi oset. *golf* | *gulf* 'kuchli oqim', 'kuchli to'lqin', oset. *boz*, *bozo*, *bozol* 'echki', oset. *kom* 'og'iz' leksik birliklari V.I.Abayev tasdig'i bo'yicha german parallellari osetin tili bilan munosabatga ega bo'lmagan.

Shunday qilib, 41 ta osetin-nemis parallellari qamrab olinmadi. Qolgan 56 so'zdan 33 leksik birlik hind-yevropa lug'atida muhim ahamiyatiga ega va shuning uchun ham ular tahlilga tortilmagan. Saralash natijasida 23 ta leksik birlik tanlandi hamda ularning tahlili qadimgi Yevropa – «skif» yoki german – «skif» aloqalari davri bilan bog'lash imkonini berdi. Leksik izoglosslarni xronologik qatlamlarga ajratishning asosiy mezonini har bir izogloss uchun fonetik, semantik va morfologik mezonlar bilan alohida tasdiqlangan madaniy hamda tarixiy talqindir.

Dissertatsiyaning «Qadimgi yevropa-«skif» leksik izoglosslar» nomli paragrafda biz osetin-german leksik o'xshashliklarini tahlil qildik, ularning natijalari birinchi aloqalar davri – qadimgi Yevropa-skif bilan bog'lashga imkon berdi.

Shimoliy qora dengiz mintaqasi va Volga dashtlarining aloqa zonasini inobatga olgan holda, bu leksika, Hind-Yevropa hamjamiyati davridan tashqari, izoglossning eng qadimgi qatlamidir.

Areal aloqalarning ushbu davriga kelib qadimgi nem. *hanaf* (germ. **hanapa*) – oset. *gæn* 'kanop' (skif. **kana*), skif. *kanabis* 'kanop'; lot. *occa* (**otekā*) – oset. *adæg* 'harrou' (<**otaka*); qadimgi nem. *fel(a)wa* 'tol' – oset. *færv* 'alder'; qadimgi nem. *hōla* – oset. *k'oyllaw* 'chov churrasi' (<**kurraw*, o'zak undosh auslautda **kur-*geminatsiya qilingan (**kurr-*) va *ll ga* o'zgartgan); qadimgi nem. *spanst* 'sharpa'

